MODULLI TA’LIM ASOSIDA ANATOMIYA DARSLARINI LOYIHALASHTIRISH

Mansurova D.A., Alfraganus universiteti
Tibbiyot fakulteti o‘qituvchisi
Abduvohidova D.O‘.,davolash ishi yo‘nalishi talabasi

Аннотация: Ushbu maqolada anatomiya fanini o‘qitishda modulli ta’lim texnologiyasidan foydalanishning o‘quvchilarda ijodkorlik xususiyatlarini rivojlantirishi haqida ma’lumotlar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: modul, interfaol ta’lim, anatomiya, kredit-modul, axborot, axborot banki.

Аннотация: В статье рассматривается развитие творческих качеств у студентов посредством исползования модулной образовательной технологии при обучении анатомии.

Ключевые слова: модул, интерактивное обучение, анатомия, кредитный модул, информация, информационный банк.

Abstract: This article presents information on the development of creative abilities in students through the use of modular educational technology in teaching anatomy.

Keywords: module, interactive education, anatomy, credit module, information, information bank.

Keyingi yillarda Respublikamizda oliy va kasb-hunar ta’limi tizimi muassasalarida modulli ta’lim texnologiyasidan foydalanib o‘qitish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borildi va natijalari amalda tatbiq etildi. Bu sohada xaligacha izlanishlar olib borilmoqda, tajribalar o‘tkazilmoqda.

Pedagog olim N.A.Muslimovning fikricha modulli ta’lim texnologiyasidan foydalanib o‘qitish – samarali natijalarga erishishni ta’minlaydi, chunki u talabalarning bilim imkoniyatlarini va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish tizimiga eng yaxshi moslashgandir[1]. Modulli ta’lim texnologiyasi, kasbiy ta’limning zamonaviy masalalarini xar tomonlama yechish imkoniyatini yaratadi. Buning uchun modulli ta’lim texnologiyasining optimallashgan va sodda ko‘rinishda ishlab chiqish muammosini hal etish zarur.

“Modul” (lot. “modulus”) tushunchasi: 1) tizim ichidagi o‘zaro chambarchas bog‘liq elementlardan iborat tugun; 2) muayyan texnologiyani tashkil qiluvchi tarkibiy bo‘laklarni ifodalovchi atama; 3) o‘quv materialining mantiqan tugallangan birligi.

N.H. Avliyoqulovning ta’kidlashicha “Modulli o‘qitish” termini xalqaro tushuncha modul bilan bog‘liq bo‘lib, uning bitta ma’nosi – faoliyat ko‘rsata oladigan o‘zaro chambarchas bog‘liq elementlardan iborat bo‘lgan tugunni bildiradi. Bu ma’noda u, modulli o‘qitishning asosiy vositasi sifatida, tugallangan informatsiya bloki sifatida tushuniladi[2].

O‘qitishning modul tizimi haqida rasmiy ravishda birinchi marta, 1972 yil, YuNESKOning Tokiodagi butun jahon konsepsiyasida so‘z yuritilgan edi. Modulli o‘qitish texnologiyasi – funksional tizimlar, fikrlashning neyrofiziologiyasi, pedagogik 1 Muslimov N.A., Raximov Z.T., Xo‘jaev A.A., Qodirov H.Sh. Ta’lim texnologiyalari. V.P. Bespalkoning fikricha, modul fanining fundamental tushunchalarini – ma’lum hodisa yoki qonun, yoki bo‘lim, yoki ma’lum bir yirik mavzu yoki o‘zaro bog‘liq tushunchalar guruhini o‘z ichiga oladi. Modul – bu o‘quv materialining mantiqan tugallangan birligi bo‘lib, o‘quv fanining bir yoki bir necha fundamental tushunchalarini o‘rganishga qaratilgandir.

O‘.Q.Tolipov6 modullashgan texnologiyaning afzalligi haqida quyidagicha fikr bildiradi: “Modulli ta’lim texnologiyasining afzalliklaridan biri – ta’lim mazmunini tartibga solishdan iborat bo‘lib, bunda mavjud axborotdan shundaylarinigina qat’iylik va qunt bilan tanlab olish kerakki, ular davlat ta’lim standartlari doirasida o‘quvchilar faoliyatini yetarli darajada muvaffaqiyatli amalga oshirish imkonini berishi lozim”. Modulli ta’lim texnologiyasining boshqa texnologiyalardan farqi shundaki, bunda har qaysi bosqichda o‘quvchilar o‘quv materiali bo‘yicha yetarli bilim, ko‘nikma va malakalarni egallaganlaridan keyingina so‘nggi bosqichga o‘tadilar.

Modulli ta’lim – o‘qitishning istiqbolli tizimlaridan biri hisoblanadi, chunki u odam bosh miyasining o‘zlashtirish tizimga eng yaxshi moslashgandir8. Modulli

o‘qitish asosi inson bosh miyasi to‘qimalarining modulli tashkil etilganiga tayanadi. U quyidagilardan tarkib topgan bo‘ladi. To‘qima hujayralari bir-biri bilan ko‘p sonli to‘qnashuvlarda bo‘lishadi. Bir hujayra va uning o‘simtasini boshqa hujayra va uning

Darhaqiqat oliy ta’lim muassasalarida o‘quv jarayoniga kredit –modul tizimini joriy etilishi albatta. Ta’lim tizimi oldida turgan masalalarni muvaffoqiyatli hal yetishga yordam beradigan, zamonaviy talablarga ko‘proq moslashgan kadrlar tayyorlashning modultizimidir. Ma’lumki, «XXI asr – intellektual asr» deb atalmoqda va bu yangi soha bu yangi bilimlar ishlab chiqish uchun (ma’lumot, ma’lumotlar bazasi, axborot, axborotlar banki va b.q.) texnologiyalar, uslublar, texnik vositalarni ishlab chiqarish bilan bog’liq bo‘lgan axborot sanoati yuzaga kelmoqda. Bu esa axborot texnologiyalarini ham sifat ko‘rsatkichlarini zamon bilan hamnafas qilishni taqozo etadi. “Ta’limning barcha bosqichlariga oid umumiy pedagogik va didaktik talab talaba (yoki o‘quvchi)ning dasturiy bilim, tasavvur va ko‘nikmalari asosida mustaqil ishlash samaradorligini takomillashtirish, ilmiy fikrlashga o‘quv faniga qiziqishga kuchaytirish, kasbiy bilimlarni chuqurlashtirish, nazariy va amaliy mashhulot mobaynida ularning faolligini oshirishdan iboratdir.”

Demak, bugungi kunimiz «manbalar → belgilar → ma’lumotlar → ma’lumotlar bazasi → axborotlar → axborotlar banki → axborotli texnologiyalar → axborot texnologiyalar→modul tizimi»da fikr yuritishni taqozo qilar ekan. Shuning bilan birga buasr insoniyatning axborot ishlab chiqarish bo‘yicha imkoniyatlarini kuchaytiruvchi modul tizimlari, axborotlashgan jamiyatning intellektual salohiyatli sifatini ham belgilar ekan va bunday jarayonlar axborotlashtirish sanoatini muntazam rivojlantirishni ta’minlovchi ilmiy-texnik asos hamdir.

Anatomiya fanini o‘qitishda o‘qitishning modul tizimi talaba-yoshlarning bilim saviyasini oshirishda ilmiy dunyoqarashini kengaytirishda, jamiyat taraqqiyoti saviyasini tezlashtirishda va davlatning iqtisodiy hamda ma’naviy-ma’rifiy qudratini yuksaltirishda foydalanish maqsadga muvofiq bo‘lib, bundan pirovard maqsadimiz xalq farovonligi, yurt tinchligi, Vatan taraqqiyotini o‘zida mujassam qilgan

Demak, “Modulli o‘qitish” termini xalqaro tushuncha modul bilan bog’liq bo‘lib, o‘ning bitta ma’nosi –faoliyat ko‘rsata oladigan o‘zaro chambarchas bog’liq elementlardan iborat bo‘lgan tugunni bildiradi. Bu ma’noda u, modulli o‘qitishning asosiy vositasi sifatida, tugallangan informatsiya bloki sifatida tushuniladi.Modul fanining fundamental tushunchalarini –ma’lum hodisa yoki qonun, yoki bo‘lim, yoki ma’lum bir yirik mavzu yoki o‘zaro bog’liq tushunchalar guruxini o‘z ichiga oladi.

Modul bu o‘quv materialining mantiqan tugallangan birlig bo‘lib o‘quv faninng bir yoki bir necha fundamental tushunchalarini o‘rganishga qaratilgandir. O‘qitishning modul tizimi xaqida rasmiy ravishda birinchi marta 1972 yil, YuNESKOning Tokiodagi butun jaxon konferentsiyasida so‘z yuritilgan edi. Modul o‘qitish texnologiyasi –fuktsional tizimlar, fikrlashning neyrofiziologiyasi biologiyaning umumiy nazariyasidan kelib chiqqan. Izlanishlarga

ko‘ra inson miyasi informatsiyani kvant ko‘rinishida “boshqacha aytganda ma’lum portsiyalar ko‘rinishida” yaxshi qabul qiladi.

Ta’lim va tarbiya jarayonida o‘qituvchi (pedagog)lar tomonidan interfaol metodlarning o‘rinli, maqsadli, samarali qo‘llanilishi ta’lim oluvchi (o‘quvchi, talabalar)da muloqotga kirishuvchanlik, jamoaviy faoliyat yuritish, mantiqiy fikrlash, mavjud g’oyalarni sintezlash, tahlil qilish, turli qarashlar orasidagi mantiqiy bog’liqlikni topa olish qobiliyatlarini tarbiyalash uchun keng imkoniyat yaratadi.

Anatomiya fanining tushuntiruv aparatining qat’iy tizimi ko‘p qirrali taxlili asosida, eng samarali modul tuziladiyu bu esa fundamental iboralar guruhini ajratish materialning mantiqan va kompakt guruhlash imkoniyatini berishi tabiiy. Modul bu mustaqil tarkibiy birlik bo‘lgani uchun talaba -yoshlarga fan asoslarini to‘laligicha emas balki bir qanchamodullarni tinglash va o‘rganish imkonini berib ularda uz kompitentlik xususiyatlarini shakllanish imkonini beradi bunday o‘rganishi individual va mustaqil ta’lim ishlarini optimal rejalashtirishga imkon beradi.

Shunday qilib modulli o‘qitishda, talabalarni o‘z qobiliyatiga ko‘ra bilim olishi uchun to‘la zarur shart sharoitlar yaratiladi. Modulli o‘qitishda qo‘yidagilarni amalga oshirish ko‘zga tutiladi:-ishchi o‘quv rejani chuqur taxlili asosida o‘zaro chambarchas bog‘liq fanlar aniqlanadi, ya’ni butun o‘quv reja aloxida makromodullar to‘plami sifatida qaraladi; -o‘quv materilining takrorlanishining oldini olish maqsadida, makro modulga kiruvchi fanlar o‘quv dasturlarini o‘zaro bog’liqligini ta’minlaydi.*Modul o‘z ichiga 2-3 ma’ruza va shu ma’ruzalar bilan bog’liq bo‘lgan amaliy darslar ma laboratoriya ishlarini qamrab olishi mumkin.

Xar qaysi modul bo‘yicha quyidagi materiallar tayorlanadi: talabalarning bilimini nazorat qilishi uchun testlar; individual ishlar uchun topshiriqlar; -mustaqil ishlar uchun topshiriqlar; o‘quv uslubiy tarqatma materiallar; o‘quv ilmiy adabiyotlar ro‘yxati; -ishchi o‘quv dastur.

Xar bir modul test sinovlari bilan tugallanishi lozim. Shunday qilib modulli o‘qitishdan foydalanish yoshlarni oliy malakali mutaxassis sifatida shakllanishiga o‘z samaralarini beradi. Bu esa «XXI asr -aql-zakovat asri - axborotlashgan jamiyat sari asri»dagi uzluksiz ta’lim tizimining faol ishtirokchisini tayyorlashga mustahkam asos bo‘ladi. Bunday paytda yoshlarga modul tizimi asosida ta’lim berish ularning ilmiy dunyoqarashini kengaytirishda foydalaniladigan ma’lumotlarni to‘plash, ularni tadqiqot maqsadiga mos tizimlarga ajratish hamda foydalanishga qulay holdagi axborot ko‘rinishiga keltirishlariga yaxshi samara beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Darslik. – Toshkent: “Voris” nashriyoti, 2019. - 568 b. 2 Ashurova S. Maxsus fanlarni modul texnologiyasi asosida O‘qitish.// Kasb-hunar ta’limi. 2004 yil 5-soni.15-b. 3h

2. Avliyoqulov N.H. O‘qitishning modul tizimi va pedagogik texnologiyasi amaliy asoslari. Uslubiy qO‘llanma. – Buxoro, 2001. – 49 b. psixologiyalarning umumiy nazariyasidan kelib chiqadi.

3. Бородина Н. В. Основы разработки модулной технологии

обучения: Учебное пособие / Н.В. Бородина, Н.Е. Эрганова. – Екатеринбург: изд-во Урал. гос. проф.-пед. ун-та, 1994. – 87 с.

PEDAGOGIK OLIY TA’LIMDA KONTEKSTUAL O‘QITISH MODELLARINI QO‘LLASH

G‘ulomova M.R., QDU tayanch doktoranti
E-mail: gulomovamaftuna042@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqola zamonaviy ta’lim tizimida kontekstual o‘qitish modelini qo‘llashning nazariy va amaliy jihatlarini o‘rganishga bag‘ishlangan. Kontekstual o‘qitish modeli nazariy bilimlarni real hayotiy vaziyatlarga bog‘lash orqali talabalarning bilimlarini amaliy ko‘nikmalarga aylantirishni ta’minlashga qaratilgan innovatsion pedagogik yondashuv sifatida pedagogik misollar orqali taqdim etiladi.

Kalit so‘zlar: kontekstual o‘qitish, nazariy bilim, amaliy ko‘nikma, semiotik model, imitatsion model, ijtimoiy model, pedagogik mahorat, pedagogika.

Abstract. This article is devoted to the study of the theoretical and practical aspects of the application of the contextual teaching model in the modern education system. The contextual teaching model is presented through pedagogical examples as an innovative pedagogical approach aimed at ensuring the transformation of students' knowledge into practical skills by linking theoretical knowledge to real-life situations.

Keywords: contextual teaching, theoretical knowledge, practical skills, semiotic model, imitation model, social model, pedagogical skills, pedagogy.

Zamonaviy ta’lim tizimi global miqyosda raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashni talab etadi. Shunday vaziyatda ta’lim jarayonida yangi pedagogik texnologiyalarni, jumladan, kontekstual o‘qitish modellarini joriy etish alohida ahamiyat kasb etmoqda. Pedagogik jarayonda kontekstual o‘qitish modeli zamonaviy ta’lim tizimida nazariy va amaliy bilimlarni birlashtirishning samarali usullaridan biri hisoblanadi. Ushbu model o‘quvchilarning nazariy bilimlarini hayotiy amaliyot bilan uzviy bog‘lash orqali ularning ta’lim jarayonidagi ishtirokini faollashtirishga va ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Kontekstual o‘qitishning ahamiyati, bir tomondan, zamonaviy ta’limning innovatsion yondashuvlarini amaliyotga tatbiq etish imkoniyatlarida namoyon bo‘lsa, boshqa tomondan, ta’lim sifatini oshirish va talabalar kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qilishida namoyon bo‘ladi.

Mazkur yondashuv ta’lim jarayonining didaktik va metodik jihatlarini takomillashtirishga yordam berib, o‘quvchilar uchun qiziqarli va mazmunli o‘quv muhitini yaratishga imkon beradi. [1,5] Bu esa talabalar nazariy bilimlarini nafaqat mustahkamlashni, balki ularning real hayotiy muammolarni hal etishdagi amaliy qobiliyatlarini rivojlantirishni ta’minlaydi.

Kontekstual o‘qitish modeli – o‘quv jarayonini real hayotiy vaziyatlar bilan bog‘lash orqali talabalarda nazariy bilimlarni amaliy ko‘nikmalarga aylantirishni maqsad qilgan pedagogik yondashuvdir. [2,19-26] Bu modelning nazariy asosi konstruktivizm tamoyillariga tayanadi, ya’ni bilimlar faqat tinglash yoki yodlash orqali emas, balki faol ishtirok va muammolarni hal qilish orqali o‘zlashtiriladi. Kontekstual o‘qitishning mohiyati talabalarni ta’lim jarayonining markaziga qo‘yish

va o‘z-o‘zini rivojlantirishga undashdir. Ushbu yondashuvda bilim olish jarayoni talabalarning kundalik hayoti va kelajakdagi kasbiy faoliyati bilan uzviy bog‘langan holda tashkil etiladi. Shu o‘rinda PISA tadqiqoti asoschisi Andreas Shlyayxerning quyidagi fikrlari juda ham o‘rinlidir: “…Zamonaviy dunyoda siz faqat bilim orqali qandaydir muvaffaqiyatga erishishingiz qiyin. Endi Google hamma narsani biladi. Bugungi kunda bilim bilan birgalikda uni amaliyotga joriy eta olishingiz siz uchun barcha zarur eshiklarni ochadi. …Ta’lim sifati hech qachon o‘qituvchi sifatidan oshib ketolmaydi”. [3]

Oliy ta’limda kontekstual o‘qitish nazariyasining asoschisi, rus pedagogi va psixologi Andrev Aleksandrovich Verbitskiydir. Uning “Активное обучение в высшей школе: контекстный подход” va “Категория «контекст» в психологии и педагогике” nomli asarlarida kontekstual o‘qitishning nazariy va metodik jihatlarini va oliy ta’lim muassasalarida qo‘llash usullarini bayon etadi. Verbitskiy ta’limotiga asosan kontekstli o‘qitish semiotik, imitatsiya (simulyatsiya), ijtimoiy ta’lim modellaridan tashkil topadi: [4, 336]

Semiotik ta’lim modelida mavzuga oid ma’lumot axborot, jadval yoki grafik tarzida taqdim qilinadi. Bu ma’lumot ta’lim oluvchi tomonidan mustaqil o‘zlashtiriladi va yakuniy xulosasi so‘zli (yoki yozma) bayon qilinadi; Bu modelning muhim jihati shundaki, semiotik usul orqali abstract tushunchalar tahlil qilinadi va bilimlar mazmunini anglash va mantiqan foydalanishga yordam beradi.

Imitatsiya ta’lim modelida mavzuiga oid ma’lumot nazariy axborot ko‘rinishida taqdim qilinadi. Ta’lim oluvchi tomonidan axborotning tahlil qilinishi va undan berilgan. topshiriqqa mustaqil qaror qabul qilinishi kutiladi; Bu model orqali nazariy bilimlar amaliy holatlarga simulyatsiya, rolli o‘yinlar,labaratoriya ishlari kabi metodlar orqali qo‘llaniladi. Bu model talaba faoliyati bilan bog‘liqdir.

Ijtimoiy ta’lim modelida mavzuga oid berilgan ma’lumotlarning amaliy ahamiyatini tushunishi nazarda tutiladi va uning bajarilishi quyidagi faoliyatlar orqali qabul qilinadi: referat shaklida, loyiha ishi, tadqiqot ishini bajarishi; Ijtimoiy model talabalarda muloqot, muhokama, mustaqil qaror qabul qilish kabi ijtimoiy ko‘nikmalarni tarkib toptiradi.

Semiotik, imitatsiya va ijtimoiy ta’lim modellari birgalikda pedagogik oliy ta’lim talabalarini kasbiy faoliyatiga amaliy jihatdan tayorlaydi.

Pedagogik oliy ta’lim o‘quv rejasiga muvofiq “Pedagogika (qo‘shimcha tarbiya fani o‘qituvchisi)” ta’lim yo‘nalishi talabalari uchun “Pedagogik mahorat” fanidagi “O‘qituvchining ta’lim jarayonidagi mahorati” mavzusini A.A.Verbitskiyning kontekstual o‘qitish modellaridan foydalangan holda o‘qitilishi bo‘yicha nazariy va amaliy tushunchalar:

- Semiotik modelda o‘qituvchi “Pedagogik mahorat” tushunchasi, tarkibiy qismlari, pedagogik xususiyatlari (didaktik bilimlar, kommunikativ ko‘nikmalar, psixologik tayyorgarlik va boshqalar) haqida slayd yoki infografika orqali qisqacha tushuntiradi. Qisqa savol-javob o‘tkazish ham maqsadga muofiq. O‘quvchilarga mashhur, namunali o‘qituvchilarning faoliyati haqidagi qisqa matnlar yoki videolardan parchalar taqdim etiladi va topshiriq beriladi:

1.O‘qituvchining qaysi mahoratlari ko‘zga tashlanayotganini tahlil qiling.

2.Matn (videorolik) dan pedagogik mahorat elementlarini aniqlang.(o‘qituvchi metodikasi, nutq madaniyati, psixologik, baholash uslubi).

❖ Imitatsion modelda talabalar kichik guruhlarga bo‘linadilar, “Qisqa dars” tashkil etishadi. Har bir guruhga o‘qituvchi sifatida chiqish va darsni qisqacha olib borish topshirig‘i beriladi.Guruh a'zolari o‘zlarini o‘qituvchi rolida namoyon etadilar va bir-birlarini kuzatadilar. Bu usuldan maqsad talabalar o‘qituvchining qanday mahorati yaxshi namoyon bo‘lishini aniqlashlaridir.

❖ Ijtimoiy modelda guruhlar “Ideal o‘qituvchi qanday bo‘lishi kerak?” degan mavzuda muhokama olib boradilar. Har bir guruh o‘z konsepsiyasini ishlab chiqadi va e’lon qiladi: “Bizning nazarimizda ideal o‘qituvchi quyidagi fazilatlarga ega bo‘lishi lozim ...”

Dars so‘ngida umumiy xulosalar chiqariladi. Har bir talaba o‘ziga “Men o‘qituvchi sifatida qanday pedagogik mahoratlarni rivojlantirishim lozim?” yoki “O‘zimni o‘qituvchi namunasida qanday ko‘raman?” kabi savollar ustida o‘ylab, o‘z-o‘zini tahlil qilib, muhim bilimlarni egallaydilar.

Bu usulda talabalar bo‘lajak o‘qituvchilar sifatida nafaqat o‘qituvchining kasbiy ko‘nikmalarini tushunadilar, balki kontekstual tahlil va yondashuvlar asosida analiz qilish (semiotik), amalda sinash (imitatsion) va jamoaviy fikr almashish (ijtimoiy) orqali o‘zlarida refleksiya va kasbiy-pedagogik rivojlanishga bo‘lgan ehtiyojni shakllantiradilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Тенищева В.Ф. Интегративно-контекстная модель Формирования профессиональной компетенции: дисс. пед. док. наук. – М.: 2008. – 5 с.
2. Putu Yulia Angga Dewi, Kadek Hengki Primayana. “Effect of learning module with setting contextual teaching and learning to increase the understanding of concepts”. International Journal of Education and Learning: 2019. – P. 19-26.
3. Gazeta.uz https://www.gazeta.uz/oz/2022/06/07/schleicher/
4. Вербицкий А.А., Ларионова О.Г. Категория «контекст» в психологии и педагогике. – М: Изд-во Logos, 2009. – 336 с.